13-MAVZU. STANDARTLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH.

Reja.

1. Standartlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish tartibi..

2. Texnikaviy shartlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish.

GLOSSARY (ГЛОССАРИЙ)

Atamaning nomlanishi			Atamaning ma’nosi
Uzbek	**Russian**	**English**	
Standartlashtirish	Стандартизация	Standardization	Mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarga nisbatan umumiy qoidalar, talablar hamda me’yorlarni belgilashga qaratilgan faoliyat.
Texnik jihatdan tartibga solish	Техническое регулирование	Technical regulation	Mahsulotlar va jarayonlarga nisbatan majburiy talablarni belgilash hamda ularga rioya etilishini ta’minlash faoliyati.
Me’yoriy hujjat	Нормативный документ	Normative document	Faoliyatning muayyan sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan qoidalar, talablar va me’yorlarni belgilovchi hujjat.
Standartlashtirish obyekti	Объект стандартизации	Standardization object	Standartlashtirish talablari belgilanadigan mahsulot, xizmat, jarayon, usul yoki faoliyat turi.
Standartlashtirish subyekti	Субъект стандартизации	Standardization subject	Standartlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi yoki ushbu jarayonda ishtirok etuvchi tashkilot, muassasa va mutaxassislar.
Texnik qo‘mita	Технический комитет	Technical committee	Standartlarni ishlab chiqish, muhokama qilish va takomillashtirishda ishtirok etuvchi mutaxassislar hamda manfaatdor tomonlar guruhi.
Muvofiqlikni baholash	Оценка соответствия	Conformity assessment	mahsulot, xizmat yoki jarayonning belgilangan talablar va standartlarga mosligini aniqlash faoliyati.
Standartlarni uyg‘unlashtiri	Гармонизация стандартов	Harmonization of standards	Turli mamlakatlar yoki tashkilotlarda qo‘llaniladigan standartlar o‘rtasidagi

sh			farqlarni kamaytirish va talablarni o‘zaro muvofiqlashtirish jarayoni.
Standartlashtirish samaradorligi	Эффективность стандартизации	Effectiveness of standardization	Standartlashtirish natijasida mahsulot sifati, xavfsizligi, resurslardan foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligida erishilgan ijobiy natijalar majmui.
Standart	Стандартный	Standard	Muayyan faoliyat yoki uning natijalariga doir talablar, qoidalar va tavsiyalarni belgilovchi me’yoriy hujjat.

1. STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISH, KELISHISH, TASDIQLASH VA AMALIYOTGA JORIY ETISH TARTIBI..

O‘z RST 1. 1-92 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O‘zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi" standartiga binoan O‘zbekiston Respublikasi standarti (bundan keyin - standart deb yuritiladi) standartlashtirish bo‘yicha texnikaviy qo‘mitalar (bundan keyin TQ), standartlashtirish bo‘yicha tayanch tashkilotlari,vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar, davlat, shirkat, pudratchi, aktsioner, qo‘shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Standartni har xil tashkilotlar mutaxassislarining ishchi guruhlari tomonidan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yiladi.

Standartning bir nechta tashkilot tomonidan ishlab chiqilishida etakchi ishlab chiquvchi tashkilotlar (ijrochilar ro‘yxatida birinchi o‘rinda turadi) hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko‘lamini va muddatlarini aniqlaydi.

Standart respublika hududida kimga qarashli ekanligi va mulk shaklidan qat’iy nazar, standart ishlab chiqilgan tashkilotlarni chiqaradigan va iste’mol qiladigan hamma korxona va tashkilotlar uchun majburiydir.

Standartga kiritiladigan o‘zgarish asosiy standart uchun belgilangan tartibda majburiy kelishib olinishi, tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Standartlarning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi GOST 1. 5-85ga muvofiq bajariladi.

Standartlarni ishlab chiqish tartibi

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy - usuliy birlikka erishish maqsadida hamda standartni ishlab chiqish bosqichlari bajarilishini nazorat qilish uchun 4 bosqich joriy etiladi.

1-bosqich - zaruriyat tug‘ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

2-bosqich - standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish;

3-bosqich - fikr - mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo‘shib olib borishga yo‘l qo‘yiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni

fikr - mulohazalar olish uchun yuborish

Standart loyihasi TQ ish rejasiga, tasdiqlangan standartlashtirish jadvaliga, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasiga, manfaatdor tashkilotlar taklifi va ishlab chiquvchi korxonalarnini tashabbusiga binoan ishlab chiqiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham tuziladi va lozim topilsa standartni joriy qilish bo‘yicha asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi (keyinchalik - asosiy tadbirlar rejasining loyihasi deb yuritiladi).

Standart loyihasi tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bilan birgalikda ko‘paytiriladi va ro‘yxat bo‘yicha hamma manfaatdor tashkilotlarga fikr-mulohazalar olish uchun yuboriladi.

Standart loyihasi korxona va tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilganidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini tuzib, standartni ishlab chiquvchi tashkilotga qabul qilgan kundan boshlab 15 kun ichida, kechiktirmasdan yuboradilar.

Fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini ishlab chiqish (so‘nggi tahriri), kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish

Korxona va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo‘yicha fikr-mulohazalar qayta ishlanib, ular asosida fikr-mulohazalar majmuini tuziladi.

Etakchi ishlab chiquvchi tashkilot tuzilgan fikr-mulohazalar majmuiga binoan standart loyihasining so‘ngi tahririni ishlab chiqadi hamda tushuntirish xatini va asosiy tadbirlar rejasining loyihasini aniqlaydi.

Ishlab chiquvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar orasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bo‘yicha kelishmovchiliklar bo‘lsa, etakchi ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni muhokama qilish uchun kengash o‘tkazadi.

Kengashga ko‘rib chiqilgan standart loyihasi bo‘yicha va qaror qabul qilish vakolati berilgan asosiy manfaatdor tashkilotlarning va buyurtmachilar(asosiy iste’molchilar)ning vakillari taklif etiladi. Ushbu kengashda ko‘rib chiqilayotgan masalalarning har taraflama muhokama qilinishi va bu masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinishini ta’minlanish lozim bo‘ladi.

Etakchi ishlab chiquvchi tashkilot kengash qatnashchilariga munozarali masalalar bo‘yicha fikr-mulohazalar majmuidan ko‘chirmalar yuboradi. Kengash taklifnomalarini uning qatnashchilariga kengash boshlanishiga kamida 10 kun qolganda oladigan qilib yuboriladi.

Kengash qarori uning qatnashchilari imzo chekkan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada yoki unga ilova qilingan alohida ro‘yxatda kengash ishtirokchisining har birini familiyasini, ismi, otasining ismi va mansabi (tashkilotning nomini qo‘shib) ko‘rsatiladi.

Kengashda qabul qilingan qarorga binoan, standart loyihasining so‘nggitahriri tuziladi hamda tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasiningloyihasi aniqlanadi. Bundan tashqari, agar standart loyihasida davlat nazorati, kasaba uyushmasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyati doirasiga taalluqli talablar qo‘yilgan bo‘lsa, loyiha ushbu idoralar bilan ham kelishib olinishi kerak.

Chet elga chiqariladigan mahsulotlarning standartlari esa GOST 122-85 bo‘yicha kelishib olinadi.

Standart loyihasi yuzasidan tashkilotlar o‘rtasida davom etayotgan kelishmovchiliklar bo‘yicha O‘zstandart agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘zlariga yuklatilgan faoliyat turlari to‘g‘risida so‘nggi qarorni qabul qiladi.

Standartga o‘zgartish kiritilganda, agar u ilgari, kelishib olingan tashkilotlarning manfaatlariga monelik qilmasa, o‘zgartish faqat buyurtmachi (asosiy iste’molchi) bilan kelishiladi.

Standartni bekor qilish yoki joriy etish vaqtini cho‘zish bo‘yicha faqat buyurtmachi (asosiy iste’molchi) bilan kelishiladi.

Standart loyihasi tasdiqlashga ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan quyidagicha to‘plamda beriladi:

- ilova xati;
- standart loyihasining so‘nggi tahririga tushuntirish xati;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasining 4 ta nusxasi (ulardan ikkitasi birinchi nusxa ko‘rinishida bo‘lishi shart);
- standart loyihasi kelishilganini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasi;
- standart loyihasi to‘g‘risida fikr-mulohazalar majmui;
- qolgan kelishmovchiliklar haqida ma’lumotnoma.

Standartni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

O‘zbekiston Respublikasi standarti agentligi, Davarxitektqurilishqo‘m, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va Sog‘liqni saqlash vazirligi nomlari bo‘yicha o‘zlariga tegishli standartlarning loyihalari va hujjatlarini ko‘pi bilan 15 kun mobaynida ko‘rib chiqilishini, shuningdek davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini ta’minlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi standarti agentligi, Davarxitektqurilishqo‘m, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi standart loyihalarini ko‘rib chiqadi va uni tasdiqlash yoki kam-ko‘stini to‘ldirib qayta ishlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Standart uni tasdiqlagan tashkilotning qarori bilan tasdiqlanadi va joriy qilinadi.

Standart muddati cheklanmangan yoki muddati cheklangan tarzda tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi standartlarni davlat ro‘yxatiga olishni O‘zstandart agentligi amalga oshiradi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun standart 4 nusxada topshirilishi lozim: asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va ikkita ko‘chirmasi.

Standartni davlat ro‘xatidan o‘tkazish uchun juz band qilib, muqovalab topshirish lozim.Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Standartning qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanishidan qat’iy nazar, standartga raqamli belgini O‘zstandart agentligi beradi.

Belgi o‘z navbatida:

Hujjatning ko‘rsatkichidan – O‘zDST; ro‘yxatning tartib raqamidan va tasdiqlangan yilning oxirgi ikki sonidan iborat bo‘ladi.

Masalan, O‘z RST 5-96-93 "Texnika chigit texnik sharoit", O‘zDST 816:2001 tozalangan paxta yog‘i v ax.k.

Ro‘yxatga oluvchi idora asl nusxa, ikkinchi nusxasi va ikkita ko‘chirmaning birinchi betiga o‘zining nomini ko‘rsatadigan to‘rtburchak muhrni bosadi, sana va davlat ro‘yxatining nomerini yozib qo‘yadi. Ikkinchi nusxa O‘zstandartda agaentligi qoladi, asl nusxa va ko‘chirmaning ikkinchi nusxasi esa ishlab chiquvchiga qaytariladi.

2. TEXNIKAVIY SHARTLARNI ISHLAB CHIQISH, KELISHISH, TASDIQLASH VA AMALIYOTGA JORIY ETISH.

O‘z RST 1. 2-92 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Texnikaviy shartlarni ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi" standartida muayyan mahsulotning (xizmatning) texnikaviy shartlarini, shuningdek ularga kiritiladigan o‘zgartishlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi haqida gap boradi.

O‘zbekiston Respublikasi texnikaviy shartlarining loyihalari va ularga kiritiladigan o‘zgartishlar standartlashtirish texnika qo‘mitalari tomonidan ishlab chiqiladi. Asoslangan hollarda texnikaviy shartlar loyihalarini vazirliklar, mahkamalar, uyushmalar, kontsernlar yoki standartlashtirish bo‘yicha tayanch tashkilotlari, davlat, kooperativ, ijara, aktsionerlik korxonalari, qo‘shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, texnika qo‘mitalari bilan kelishib ishlab chiqadilar.

Mazkur mahsulotga dahldor MDHning davlatlararo standartlari Respublika standartlari va texnikaviy shartlari mavjud bo‘lmagan taqdirda hamda boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan talablarni kuchaytirish zarur bo‘lganda mazkur tarmoqning ikkita va undan ko‘proq korxonasi ishlab chiqaradigan mahsulotga texnikaviy shartlar ishlab chiqiladi.

Texnikaviy shartlarda belgilab qo‘yilgan talablar mazkur mahsulotga dahldor bo‘lgan amaldagi standartlar talabidan past bo‘lmasligi hamda mahsulot (buyumlar, ashyolar, moddalar) standartlari va texnikaviy shartlari talabiga zid kelmasligi kerak.

Texnikaviy shartlarning tuzilishi, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi GOST. 114-70 talablariga mos kelmog‘i kerak.

Texnikaviy shartlar mazkur texnikaviy shartlar o‘rniga boshqa me’yoriy hujjat ishlab chiqilayotgan yoki undan qo‘llanishi bundan buyon maqsadga muvofiq bo‘lmay qolganda yoki mahsulotni ishlab chiqarish to‘htatilganda bekor qilinadi.Texnikaviy shartlarni tasdiqlagan idora ularni bekor qiladi.

Texnikaviy shartlarning loyihalarini kelishib olish mazkur standartda ko‘rsatilgandek belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnikaviy shartlar ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchi)ning buyurtmachi bilan kelishuviga muvofiq yoki ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchi) tomonidan buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

Texnikaviy shartlar belgilangan tartibda O‘zdavstandart tomonidan ro‘yxatga olinadi.

O‘z RST 1. 3-92 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Korxona standartlarini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi" standarti korxona standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning asosiy talablarini belgilaydi.

Mazkur standart talablari tayyorlaydigan, shuningdek saqlashni, tashishni, sotishni amalga oshiradigan, foydalanadigan (iste’mol qiladigan) va tuzatadigan davlat, jamoa, qo‘shma, ijaradagi, uyushma va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Korxona standartlarining tuzilishi, bayon etilishi va texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanganligi, ularning fan va texnikaning hozirgi rivojlanish ko‘rsatkichlari, me’yoriy tavsiflari va talablari hamda jahon taraqqiyoti darajalariga mosligi uchun korxona standartlarini ishlab chiquvchilar va tashkilotlar javobgardirlar.

Korxona standartlarini korxona rahbariyati tasdiqlaydi.Ularning amal qilish muddati cheklanmagan holda tasdiqlanadi.

Korxona standartining tasdiqlanishi korxona rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

Chetdagi iste’molchilarga etkazib berish uchun ishlab chiqarilayotgan (sotilayotgan) mahsulot uchun va ularga xizmatlar ko‘rsatganlik uchun korxona standartlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti, Tabiatni muhafaza qilish davlat qo‘mitasi, Davarxitektqurilishqo‘m, Sog‘liqni saqlash vazirligi va ularning ishlab chiquvchi joylashgan erdagi mintaqaviy tashkilotlari amalga oshiradi.

Korxona standartlarining belgisi "KST" indeksidan, O‘zbekiston Respublikasi nomining qisqartirmasi - "O‘z" dan, korxona standartlarini tasdiqlagan tashkilotning shartli raqamli belgisidan, korxona standartining tartib raqamidan va tasdiqlagan yilning so‘nggi ikki raqamidan iborat bo‘ladi.

Masalan, O‘z KST 359-143-92.

O‘z RST 1. 4-93 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi.Standartlar va texnikaviy shartlar bilan ta’minlash tartibi". Bu standartda

standartlar va texnikaviy shartlar bilan ta’minlash tartibidagi umumiy qoidalar, standartlar bilan ta’minlash tartibi, texnikaviy shartlar va korxona standartlari bilan ta’minlash tartibi bayon etilgan.

O‘z RST 1. 5-93 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Standartlarni va texnikaviy shartlarni tekshirish, qayta qurish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi. "

O‘z RST 1. 7-93 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Xalqaro standartlarni me’yoriy hujjatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash tartibi."

O‘z RH 51-013-93 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi.Standartlashtirish bo‘yicha texnikaviy qo‘mitalar xaqida umumlashgan nizomi va boshqa standartlar va rahbariy hujjatlar."

Nazorat savollar.

1. Nima sababdan standartlar o‘zgartiriladi.
2. Standartlarni ishlab chiqish nechta bosqichdan iborat.
3. Standart loyiasi bo‘yicha texnikaviy qo‘mitaning funktsiyalari nimalardan iborat?
4. Standartlarni belgilash tartibi qanday?
5. Texnikaviy shartlarni yaratilishining qanday tafovutli tomonlarini bilasiz?

ASOSIY XULOSALAR:

1. Standartlashtirishning ahamiyati shundan iboratki, u mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlash, xavfsizlik talablariga rioya qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

2. Standartlarni ishlab chiqish belgilangan tartib va bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon texnik topshiriqni tayyorlash, standart loyihasini ishlab chiqish, fikr-mulohazalarni ko‘rib chiqish hamda standartni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

3. Standart loyihasini kelishish jarayonida manfaatdor tashkilotlar va mutaxassislarning fikr-mulohazalarini hisobga olish muhimdir. Bu standart talablarining asoslanganligi va amaliyotga mosligini ta’minlaydi.

4. Standartlarni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ularni belgilangan tartibda rasmiylashtirishning muhim bosqichidir. Standartlarni ro‘yxatga olish ularning hisobini yuritish va tegishli tartibda qo‘llanilishini ta’minlashga yordam beradi.

5. Texnikaviy shartlarni ishlab chiqish muayyan mahsulot yoki xizmatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Texnikaviy shartlarda belgilangan talablar tegishli amaldagi standartlar talablariga zid bo‘lmasligi va ulardan past darajada bo‘lmasligi kerak.

6. Korxona standartlarini joriy etish ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash, tashish, sotish va undan foydalanish jarayonlarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ularning talablarini ishlab chiqish va bajarishda korxona rahbariyati hamda mas’ul mutaxassislarning javobgarligi katta.

7. Standartlashtirish ishlarini samarali tashkil etish standartlarni muntazam ko‘rib chiqish, zarur hollarda ularga o‘zgartirish kiritish va eskirgan hujjatlarni bekor qilishni talab etadi. Bu mahsulot sifati, xavfsizligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MUSTAQIL ISH. *Standart, texnikaviy shart, standart loyihasi.*

INFORMATSION-METODIK TA’MINOT

1. Abduvaliev A.A., “Metrology, standardization and certification” Textbook “Sharq” 2018.607-B.

2. P.R.Ismatullaev, P.M.Matyakubova, Sh.A.Tu‘raev. Fundamentals of standardization. Textbook:– Tashkent: ToshDTU, 2019, 333 p

3. K.K.Nuriyev. Fundamentals of standardization, interchangeability, metrology and certification. Textbook:– Gulistan: Ziyo publishing house, 2023, 533 p.

4. R. K. Rajput, Engineering Metrology and Instrumentation, S. K. Kataria and Sons, Delhi, 3`d edition, 2001.

5. S.S.Tukhtamishev. Fundamentals of metrology, standardization and certification. Textbook:– Tashkent: NIF MISH, 2024, 176 p.024.

6. www.agro.uz.

7. www.fao.org.

8. www.sciencedirect.com.

O‘Z-O‘ZINI NAZORAT ETISH TESTLARI:

⇨ Standartlashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
A) Mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlash hamda umumiy talablarni belgilash
B) Mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirish
C) Faqat mahsulot narxini oshirish
D) Ishlab chiqarish jarayonlarini to‘xtatish
⇨ Standart deb nimaga aytiladi?
A) Muayyan faoliyat yoki uning natijalariga doir talablar, qoidalar va tavsiyalarni belgilovchi me’yoriy hujjatga
B) Mahsulotning chakana narxini belgilovchi hujjatga
C) Korxonaning moliyaviy hisobotiga
D) Mahsulotni reklama qilish bo‘yicha ko‘rsatmaga
⇨ Standartni ishlab chiqish necha bosqichdan iborat?
A) To‘rt bosqichdan
B) Ikki bosqichdan
C) Uch bosqichdan
D) Besh bosqichdan
⇨ Standartni ishlab chiqishning birinchi bosqichida qanday ish amalga oshiriladi?
A) Zaruriyat tug‘ilganda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi
B) Standart davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi
C) Standart bekor qilinadi
D) Mahsulot sotuvga chiqariladi
⇨ Standart loyihasini ishlab chiqishda kimlar ishtirok etishi mumkin?
A) Texnik qo‘mitalar, tayanch tashkilotlar va manfaatdor tashkilotlar

mutaxassislari
B) Faqat mahsulot xaridorlari
C) Faqat savdo tashkilotlari
D) Faqat korxona hisobchilari
⇨ Standart loyihasi manfaatdor tashkilotlarga nima maqsadda yuboriladi?
A) Fikr-mulohazalar olish uchun
B) Mahsulot narxini belgilash uchun
C) Korxona faoliyatini to‘xtatish uchun
D) Mahsulotni reklama qilish uchun
⇨ Standart loyihasi bo‘yicha fikr-mulohazalar qancha muddat ichida yuborilishi kerak?
A) Qabul qilingan kundan boshlab 15 kun ichida
B) Qabul qilingan kundan boshlab 5 kun ichida
C) Qabul qilingan kundan boshlab 30 kun ichida
D) Qabul qilingan kundan boshlab 60 kun ichida
⇨ Standart loyihasi bo‘yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelganda qanday chora ko‘riladi?
A) Kelishmovchiliklarni muhokama qilish uchun kengash o‘tkaziladi
B) Standart loyihasi darhol bekor qilinadi
C) Mahsulot ishlab chiqarish to‘xtatiladi
D) Standart o‘zgartirishsiz tasdiqlanadi
⇨ Standartni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan maqsad nima?
A) Standartni belgilangan tartibda rasmiy hisobga olish
B) Mahsulot tannarxini hisoblash
C) Korxona xodimlarini ishga qabul qilish
D) Mahsulotni eksport qilish hajmini aniqlash
⇨ Texnikaviy shartlar nimani belgilaydi?
A) Muayyan mahsulot yoki xizmatga qo‘yiladigan texnik talablarni
B) Korxonaning ishchilar sonini
C) Mahsulotning faqat sotuv narxini
D) Korxonaning yillik daromadini
⇨ Texnikaviy shartlarda belgilangan talablar qanday bo‘lishi kerak?
A) Amaldagi tegishli standartlar talablariga zid bo‘lmasligi va ulardan past bo‘lmasligi kerak
B) Amaldagi standartlar talablarini hisobga olmasligi kerak
C) Faqat ishlab chiqaruvchi manfaatini ko‘zlashi kerak
D) Mahsulot sifatiga aloqador bo‘lmasligi kerak
⇨ Texnik qo‘mitaning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Standartlarni ishlab chiqish, muhokama qilish va takomillashtirishda ishtirok etish
B) Mahsulotlarni chakana savdoda sotish
C) Korxonaning moliyaviy hisobotini tuzish
D) Ishlab chiqarish uskunalarini ta’mirlash
⇨ Korxona standartlarini kim tasdiqlaydi?
A) Korxona rahbariyati
B) Mahsulot xaridorlari
C) Savdo do‘koni rahbari
D) Transport tashkiloti
⇨ Standartga o‘zgartirish kiritish qanday amalga oshiriladi?
A) Belgilangan tartibda kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish orqali
B) Hech qanday rasmiylashtirishsiz
C) Faqat og‘zaki kelishuv asosida
D) Faqat mahsulot ishlab chiqarishni to‘xtatish orqali
⇨ Standartlashtirish ishlarining samaradorligi nimada namoyon bo‘ladi?
A) Mahsulot sifati va xavfsizligining oshishi, resurslardan samarali foydalanishda
B) Mahsulot sifatining pasayishida
C) Ishlab chiqarish xarajatlarining asossiz oshishida
D) Mahsulot ishlab chiqarish hajmining doimiy kamayishida